




O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI  
MAQOMI BERILGANLIGINING  
35 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN

# “FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM”

mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

## MATERIALLARI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA JURNALISTIKA KAFEDRASI

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR:  
MUAMMO VA YECHIM**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman  
materiallari**

*Buxoro, 21-oktabr, 2024-yil*

**“Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2024. – 136 b.**

**Mas’ul muharrir**

**filologiya fanlari doktori (DSc),  
professor Abuzalova M.K.**

**filologiya fanlari doktori (DSc),  
professor Yuldasheva D.N.**

**Taqrizchilar**

**filologiya fanlari doktori (DSc),  
professor Rajabov D.Z.**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent Asadov T.H.**

**To‘plovchi va nashrga  
tayyorlovchilar**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent Ahmadova U.Sh.**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent Hamroyeva M.R.**

*Mazkur to‘plamga kiritilgan maqola va tezislarning mazmuni, ularda keltirilgan ma’lumotlar, bildirilgan fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.*

9. Khojiev, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). Language and speech expression of personal descriptions. TJE-Tematics journal of Education ISSN, 2249-9822.

## KICHIK HAJVIY JANRLAR TILI VA USLUBI

**Primov Sh. M.,  
BuxDU o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada badiiy-publitsistika tarkibidagi kichik hajviy janrlarning tili va uslubiy jihatlari haqida fikr yuritilgan. Hajman kichik kompozitsion tuzilishi va shu bilan birga o'zida ulkan ma'no va vazifalarni mujassam etganligi "Mushtum" jurnalida keltirilgan kichik hajviy janr namunalari tahlili orqali atroflicha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** *hajviy publitsistika, satira, yumor, "Mushtum", kichik hajviy xabar, hajviy xat, xanda, hajviy e'lon*

Jurnalistikaning har qanday turi, har qanday janri va shakli o'z oldiga yagona maqsadni qo'yan bo'ladi. Bu asosiy maqsad esa auditoriya, o'quvchi, umuman olganda, butun bir jamiyatga haqqoniy, ishonarli, tezkor axborot yetkazishdan iboratdir. Ammo mana shu vazifani bajarish jarayonida har bir janr o'z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda har biri o'zgacha yo'nalish, o'ziga xos uslub, turli xil vositalar, turli nutq shakllaridan foydalanadi. Bu jarayonda jurnalist uchun birinchi navbatda, muloqot vositasi bo'lgan til va nutq ko'rinishlari asosiy o'rin egallaydi. Hech kimga sir emaski, adabiy til shakli hayotning boshqa jabhalari singari jurnalistika va matbuot sohasi uchun umumiy bo'lgan muloqot tili hisoblanadi. Mana shu muloqot keyinchalik qaysi janr shaklida qo'llanishiga ko'ra o'zgarib, xususiylashib boraveradi.

"Ommaviy muloqot uslubi ham o'ziga xos tarixiy – ijtimoiy asoslar va an'alariga, axboriy ko'lam va uni uyushtirish va uzatishning usul va shakllari hamda qonuniyatlariga ega. Uning matniy qurilish usullari va shakllari turfa xil janrlar bilan uzviy bog'liq. Zero, har qanday nutq uslubi muayyan janrlarda ifodalanadi" [Toshaliyev, 2006: 88].

Ma'lum bir axborotni uzatish jarayonida jurnalist qanday axborot uzatmoqchi, uni qaysi shaklda uzatmoqchi va albatta, qanday auditoriyaga uzatmoqchi, degan masalalarni hal etib olishi kerak bo'ladi. Bunday holatda muxbir yoki jurnalistdan sohaning barcha janr va shakllarini chuqur o'rganish va uni amalda qo'llay olish ko'nikmasi talab etiladi.

"Jurnalistikada yaratilgan barcha asarlar bir qator prinsiplarga asoslangan janrlarga bo'linib, mazkur materiallarning predmeti – sodir bo'lgan voqea, dolzarb hodisalar, ijtimoiy jarayon; yozishdan maqsad esa uni kasbiy nuqtayi nazardan xolis yoritishdir" [Nuritdinova, 2005:8]. Ushbu jarayonda jurnalist dolzarb mavzuni tanlash, ishonchli faktlarni topish va ularni qayta ishlash jarayonida uning eng maqbul ifoda shaklini tanlab olib, keyingina axborotni uzatish bosqichiga o'tadi. Mana shu jarayonlar davomida sifatli kontentni yaratishda jurnalist kasbiy mahorati, bilim saviyasining qay darajada ekanligi ham muhim rol o'ynaydi.

Har qanday kontent tayyorlashda, birinchi navbatda, uning janr xususiyatlari katta ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir janr vazifasi va imkoniyatlarini anglash hamda ularga ijodiy yondashish ommaviy muloqot samaradorligini ta'minlashga, muloqot usullarini takomillashtirib borishga xizmat qiladi. "Janr – tarkibiy kompozitsion atributlarning o'ziga xos to'plami, matn tuzishning maxsus shaklidir"[Nuritdinova, 2005:10]. Auditoriyaga berilayotgan axborot yoki o'rta tashlanayotgan muammoning yoritilish uslublari haqida, ularni qanday ommaga taqdim etish borasida tadqiqotchilar matn yaratishni ikki asosiy turga bo'lishgan.

"Matn yozish ikki xil maqsadni ko'zlaydi: aniq axborotni yoritish (kasbiy, targ'ibot tashviqot, xolislik) hamda ijodiy (adabiyotshunoslik modellari asosida) bo'lishi mumkin". [Амзин А., Галустьян А...,12] Yaratilgan matn axborotning qay tarzda va kimga uzatilishiga ko'ra, asosan, uch turga bo'lingan: axboriy, tahliliy, badiiy-publitsistik.

Ma'lumot uzatishning eng birinchi bosqichi hisoblanadigan axboriy janrlarda ko'proq ommaga yoki auditoriyaga axborot berish, ushbu axborotga tegishli dalillarni asoslash xususiyati yetakchilik qiladi. Bunday janrlarda yaratilgan kontentlarda xulosa qismi deyarli uchramaydi.

Ushbu janrda yaratilgan materiallar mazmun va mohiyatiga ko'ra "kim?", "nima?", "qachon?" savollariga javob topishdan iborat bo'lib, matn ko'rinishi, mazmun-mohiyati jamiyatga ma'lum bo'lmagan voqea-hodisa, muammo va yangiliklarni aks ettirishdan iboratdir.

Axborot uzatishda tahliliy janrlarda bo'lib o'tgan hodisa va voqelikning turli shakllari yoritilib, ochiqlik va xolislik tamoyillari asosida voqeaga daxldor barcha tomonlarning ko'rsatma, fikr va mulohazalari chuqur tahlil qilingan holatda yoritiladi.

Badiiy-publitsistik janrlar haqida tadqiqotchi M. Nuritdinova shunday fikr yuritadi. "Badiiy-publitsistik janrlarda ko'proq badiiy tasviriy fikrlar, mualliflarning kechinmalari, umumiy xulosalar aks ettiriladi. Voqelikni ifodalashda psixologik tasvir vositalaridan ham keng foydalaniladi. Murakkab qarama-qarshi g'oyalar yig'indisi ijtimoiy-axloqiy sujetlarni qo'shish orqali kompleks kompozitsiya hosil qilinadi. [Nuritdinova, 2005:9]

Ma'lumki, publitsistika bir qancha turlarga bo'linadi. Uning muhim turlaridan biri hajviy publitsistikadir. "Hajviy publitsistika publitsistikaning o'ziga xos, aohida bir turi bo'lib, voqelikni aks ettirish va unga ta'sir ko'rsatishda ijtimoiy kulgi – satira va yumor qonuniyatlariga amal qiladi" [Xudoyqulov, 2011:255] .

Hajviy publitsistikaning o'ziga xususiyatlaridan biri shundaki, ularning shakli ko'rinishi adabiy janrlar bilan bir xillik kasb etadi. Aniqroq aytganda, hajviy publitsistika adabiy va publitsistik janrlarning o'zaro qorishmasi, desak bo'laveradi. Lekin hajviy publitsistika adabiy janrlardan farqli ravishda o'zida oddiy kulgi emas, balki ijtimoiylik xususiyatiga ega bo'lgan voqea-hodisalar haqida achchiq satira orqali ma'luot berishi bilan badiiy publitsistika janrlari qatoridan joy olgan. Biz endilikda hajviy publitsistikaning kichik janrlarining til va uslub masalalari haqida fikr yuritamiz.

Kichik hajviy (satirik) janrlar boshqa publitsistik janrlardan o'ziga xos kompozitsion tuzilishi, noodatiy sintaktik qurilishi va ayni paytda bir hajviy shaklning o'zida bir nechta uslublarning uyg'unlashuv xususiyati ham namoyon bo'lish hodisasiga duch kelishimiz mumkin. Kichik satirik janrlarning alohida kompozitsion tuzilishi haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo, ularning boshlanma qismiga diqqat qaratib o'tish lozim. Sababi kichik satirik janrlarning ko'pchilik shakllarida boshlanma qismi boshqa janrlardan farqli ravishda hech qanday kirish qismlarsiz, favqulodda kulminatsiya bilan boshlanadi. Lekin bunday fikrni barcha kichik hajviy janrlar uchun birdek ko'rinishga ega, degan fikrdan yiroqmiz.

Bunday turdagi janrlarda sujet asosan hayotiy mavzulardagi uydurmalar asosida shakllantiriladi. Ayni mana shu holat hajviy janrlarni axboriy va tahliliy janrlardan farqlovchi asosiy vosita sifatida talqin etiladi. Axboriy va tahliliy janrlarda bo'lib o'tgan voqea va hodisalar haqida aniq, xolis va tekshirilgan axborot beriladi. Hajviy janrlarda esa bo'lib o'tgan voqea - hodisalar mavjud, ammo ulardagi qahramon va epizodlar real hayotda umuman uchramasligi mumkin. Axboriy va tahliliy janrlar axborot berayotganda har qanday badiiy-tasviriy unsurlardan holi ravishda axborot berib o'tadi. Hajviy janrlar ulardan to'laqonli farqli ravishda axborotni auditoriyaga uzatish jarayonida istalgancha badiiy-tasviriy vositalardan unumli foydalana oladi. Bu vositalar xoh ijobiy bo'lsin, xoh salbiy, asosiy maqsadi bo'lib o'tgan voqea-hodisani oddiy shaklda emas, balki obrazli shaklda ulashishdan iborat. Yana bir narsani ta'kidlab o'tish joizki, kichik hajviy janrlar hajm jihatdan juda kichik bo'lishiga qaramasdan bir vaqtning o'zida voqea haqida ham axborot ulashadi, ham u haqida qisqa xulosa orqali uning natijasini tahlil qiladi va o'z navbatida, o'quvchining oddiy emas, obrazli shaklda axborotga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Kichik hajviy janrlar til xususiyatlari haqida to'xtalar ekanmiz, ularning har biri o'ziga xos tuzilishga ega ekanligi, janr va shakl jihatdan juda ham rang-barang ko'rinishda ekanligi bilan ham xarakterlanadi. Bunday janrlarga xandalar, hajviyalar, hajviy xabar, hajviy xat, e'lon, epigramma, latifa, lof, payrov kabi janrlarni kiritish mumkin. Dastlab xandalar tuzilishi va uslubi haqida tahlillarni amalga oshiramiz.

“Ikki mast bahshlashyapti:

– Menga qara, alk... alk..., alkogolononizator degani nima?

– Bu shunday narsaki, xullas, unga puflasang, qanchalik mast ekanligingni ko'rsatib beradi.

– Uni qara, shunday narsaga uylanganimga o‘n yil bo‘ldi” [Toirova, 2010:17].

Yuqoridagi xandaga e‘tibor beradigan bo‘lsak, uning tuzilishi juda ham sodda. Kompozitsion tuzilishi qisqagina kirish qismi, voqealar rivoji, kulminatsiya va yakun. Ushbu xandada ijtimoiy muammo – ichkilikbozlik kulgi ostiga olinmoqda. Undagi til uslubiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, so‘zlashuv uslubidan foydalanilgani yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ushbu uslubda yozilishining asosiy sababi undagi qahramonlar oddiy aholi vakillari ekanligidir va bundan tashqari, xandada jamiyatdagi eng jirkanch holatlardan biri, ya‘ni ichkilikbozlik asosiy mavzu qilib olingan. Bunday holatda istaysizmi, yo‘qmi, albatta, so‘zlashuv uslubigina mos tushadi. Boshqa til uslublari bu o‘rinda qo‘llanishi ham mumkin emas, sababi agar ushbu holatda shunchaki badiiy yoki publitsistik uslubdan foydalanilgan holatda asarning haqqoniylik, vaziyatni auditoriya va o‘quvchilar ko‘z oldiga keltirish xususiyatlari butkul yo‘qolgan bo‘lar edi. Aynan mana shu jihatdan, ya‘ni uslubning shakliy ko‘rinishi jihatdan so‘zlashuv uslubidan, oldiga qo‘ygan maqsadi jihatdan esa publitsistik uslub xusiyatlaridan foydalanilgan. Turli xil tahlillarda bu kabi hajviy janrlar hali ham faqat adabiy janr sifatida qarash ham mavjud. Ammo ularni faqat shakl jihatdan tadqiq etishdan iborat tasniflarga qo‘shilish fikridan yiroqmiz.

Har bir xandada satira va yumor na‘munalarini teng miqdorda uchratishimiz mumkin. Chunki bunday turdagi hajviy janrlarda, ya‘ni xanda, hajviya, askiya, payrov va loflarda doimo ikki tomon ishtirok etadi. Tomonlardan biri jamiyatdagi yaramas illatlarni ochish uchun ramziy yoki ko‘chma ma‘nodagi so‘z va iboralarni qo‘llaganda, zaharxanda (satirik kulgi) kulgi yuzaga kelsa, shu vaqtda ikkinchi tomonning bergan javobi yoki uning holati yengil, beg‘ubor yumoristik kulgini yuzaga keltiradi. Bunday kulgini hosil qilishda esa og‘zaki so‘zlashuv uslubida ko‘plab uchraydigan kinoya, so‘z o‘yinidan foydalanib, u yoki bu so‘z va iboralar kuchaytiribroq, bo‘rttirib qo‘llanadi. Ikkinchi tomondagi personaj kulgili holat va hodisaga qiyoslanadi.

Biz tahlil ostiga olgan kichik hajviy janrlarning ko‘pchiligi dastlab adabiy janr sifatida xalq og‘zaki adabiyotida vujudga kelgan. Taniqli olim filologiya fanlari doktori Oxunjon Safarov hajviy janrlar haqida fikr yuritib, ularning aksariyati xalq og‘zaki dramasiqa mansub deb ta‘kidlagan.

“Og‘zaki drama turli xil o‘yin kulgilardan, dramatik holatlardan, har xil qiyofaga kirgan tomoshachilarning monolog va dialoglaridan, sahna harakatlari-yu ovoz ohanglaridan tashkil topadi. Bular og‘zaki dramaning eng muhim janriy belgilari hisoblanadi” [Safarov,2010:304]

Ushbu janr shakllari adabiy jarayonga tegishli bo‘ladimi yoki publitsistik jarayon bilan bog‘liq bo‘lib ijtimoiy munosabat kasb etadimi ikkala holda ham o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi o‘zgarmasdan qoladi. “Davr uchun axloqiy normalar, mavjud tuzumga doir muammolar xususida tomosha ko‘rsatish o‘g‘zaki dramaning asosiy vazifasi sanaladi” [Safarov,2010:304]. Ushbu jihatlar ularning har ikki sohada ham birdek muhim ekanligini ko‘rsatib turibdi. Adabiy janrlardan farqli ravishda hajviy publitsistika shunchaki ko‘cha-ko‘ydagi yoki to‘y va bayrmdagi og‘zaki aytishuv jarayonlari emas, balki vaqtli matbuotda chop etilib, ma‘lum makon va zamonda yuzaga kelgan ijtimoiy va siyosiy muammoga publitsistik munosabat ifodalashdir.

Dialogik nutq uslubi asosiy o‘rin egallaydigan kichik hajviy janr namunalari haqida fikrimizni davom ettirar ekanmiz, diqqatimizni kichik hajviy janrning o‘ziga xos shakllaridan biri bo‘lgan loflarga ham to‘xtalib o‘tsak. Lof janri ham dastlab xalq og‘zaki adabiyotida vujudga kelib, keyinchalik publitsistikada ham muayyan ta‘sir doirasini o‘tkaza olgan janr hisoblanadi. Loflarda ham ichki tuzilish xuddi biz yuqorida ko‘rib o‘tgan xandalar singari juda soda tuzilishga ega bo‘ladi. Loflarda ham favqulodda boshlanma, voqelar rivoji, kulminatsiya va yakundan iborat. Lof,xanda, hajviyalarda tugun yaqqol ko‘zga ko‘rinmagan holatda voqealar rivoji bilan birgalikda namoyon bo‘ladi.

Lof janriga oid namunalarda doimo ikki tomon munosabati asosiy o‘rin egallaydi. Loflarda asosiy tasviriy vositalar sirasiga, birinchi navbarda, mubolag‘a kiradi. Loflarning boshqa hajviy janrlardan farqli ravishda ajralib turadigan jihati ham aynan mubolag‘a vositasida o‘zaro fikrlar yuzaga keltiriladi. Lof janriga oid bo‘lgan namunalarning kelib chiqishi va yaratilishiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, loflar dastlab mehnat jarayonlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Shunga ko‘ra uning obrazlar tarkibi ham xalq orasida o‘zining hazilkashligi, har bir gapida kulgi holatlarini

yuzga keltira oladigan, kishilar kayfiyatini ko‘tarishni yaxshi ko‘radigan, so‘zga chechan kishilarning nomlaridan tashkil topganligi ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari, loflarda uchraydigan obrazlarning nomlari ham ko‘p holatda qofiyadosh ismlar orqali beriladi. Ushbu jihat ham loflarning estetik ta‘sirini oshirib, uning xalq orasida yodda qolishida muhim vazifa sanaladi.

Loflarda bosh qahramonlar sifatida, asosan, qofiyadosh ismlar keltiriladi. Misol uchun: Ali va Vali, Eshmat va Toshmat, Zokir va Shokir, O‘sar va Ko‘char, Ermat va Sheramat, G‘affor va Sattor kabi ismlar fikrimizga yaqqol dalil bo‘la oladi. “Loflarda aksariyat hollarda qahramonlarning ismi o‘zaro qofiyalangan bo‘ladi. Ali, Vali, Soli kabi. Tovushlarning bunday uyg‘unligi zamirida yengil yumorga asoslangan kulgi yotadi” [Safarov,2010:321].

“Mushtum” jurnalidan olingan quyidagi lof namunalariga e‘tibor qaratsak.

“Qo‘qonlik Vali lofchi marg‘ilonlik Ali o‘rtog‘ini uchratib maqtandi:

– O‘g‘limga qo‘g‘irchoq magazinidan “Volga” mashinasi olib bergan edim. Magazinichiga pul to‘lab bunday qaragam, o‘g‘lim yo‘q. Aftidan, mashinasiga o‘tirib siznikiga ketganga o‘xshaydi.

– To‘g‘ri, – dedi marg‘ilonlik Ali lofchi.

– Men ham o‘g‘limga raketa o‘yinchoq olib bergan edim, hozirgina o‘g‘lingiz bilan Marsga uchib ketishdi. Dadamga ayting xavotir olmasinlar!, – deb menga tayinlab ketti.

Ali lofchi Vali lofchiga hasrat qildi:

– Do‘stim, do‘ppini yonboshga qo‘yib hisoblasam, shu kungacha ichgan aroqlarimning puliga “Neksiya” kelar ekan.

– Hech qancha ichmabsan-ku. Men ichib bo‘shatgan shishalarimning puliga yaqinda “Limuzin” sotib oldim [Mamatqulov,2013:10].

Yuqoridagi lof namunalariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, har ikkala lof namunasi mavzu va vazifasi jihatdan tubdan farq qilayotgani namoyon bo‘lmoqda. Birinchi lof, asosan, oddiy yengil yumor namunasi ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Unda hech qanday ijtimoiy mavzu haqida fikr ketayotgani yo‘q. Shunchaki, ikki lofchining bir-biriga mubolag‘ali chechanlik munosbati aks ettirilgan. Bunday turdagi loflar, asosan, adabiy janr namunalarida ko‘plab uchraydi. Ushbu turdagi loflar har qanday achchiq kulgidan yiroq holatda, faqat yengil mutoyiba ulashish maqsadida yuzaga keladi. Birinchi tomon aytgan uydurmaga ikkinchi tomon ham ustamonlik bilan undan qolishmagan holatda, xalq so‘zi bilan aytganda, “mot” qiladigan javob qaytara olishi kerak bo‘ladi.

Ikkinchi berib o‘tilgan lof namunasi esa, birinchisidan farqli ravishda o‘zida satira orqali ijtimoiy hayotdagi dolzarb mavzu ichkilikbozlikni tanqid qilgan tarzda yuzaga kelganini ko‘rishimiz mumkin. Ikkala lof ham tuzilishi jihatdan bir-biriga juda o‘xshaydi. Kompozitsion qurilishi soda, til va uslub jihatdan qaralganda, ikkalasida ham og‘zaki adabiy nutq ko‘rinishlaridan foydalanilgan. Chunki bularda xalq tilida yoki shevalarda uchraydigan so‘z va so‘z birikmalaridan, turli xil argolardan foydalanilmagan. Ikkalasida ham nutqning dialog shaklidan unumli foydalanilgan. Faqat birida so‘zga chechanlik asosidagi oddiy kulgi yuzaga kelsa, ikkinchisida xalq orasida uchraydigan ijtimoiy muammoni o‘ziga xos ravishda tanqid ostiga olganligi ko‘zga tashlanadi.

Ko‘rib o‘tganimizdek, kichik hajviy janrlar o‘zining sodda va ixcham shakl tuzilishi, o‘zida monologik va diologik nutq ko‘rinishlari, sodda sintaktik qurilish asosida shakllanganligi bilan katta janrlardan tubdan farq qiladi. Shaklan kichik bo‘lishiga qaramasdan, o‘zida davrning eng muhim ijtimoiy muammolarini satirik fosh etishi bilan xarakterlanadi.

Yuqoridagi xulosalar asosida shunday fikrga kelish mumkinki, har qanday janr va shaklda axborot berish o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, o‘z ichida bir necha bosqichli jarayonlarni qamrab oladi. Axborot berish janrlarda berilayotgan ma‘lumot tezkorlik, dolzarblik, mantiqiy yaxlitlik va mavjud dalillarning asosli ekanligi kabi bir nechta talablar asosida yuzaga keltiriladi. Tahliliy janrlarda esa sodir bo‘lgan voqealar zanjiri jurnalist shaxsiy pozitsiyasidan kelib chiqib tasvirlanadi. Badiiy-publitsistik janrlar esa yuqoridagi ikki janrdan keskin farqli ravishda voqea-hodisa haqida oddiy emas balki, badiiy-tasviriy obrzlar yordamida axborot berishi bilan ajralib turadi.

### **Adabiyotlar**

1. Амзин А., Галустян А., Гатов В., Кулчитская Д. Новый медиа вопросы: гипертекст и жанры. URL: <http://www.cyberleninka.ru>
2. M. Nuritdinova. Multimediyaviy janrlar tasnifi. Monografiya. – T., 2021.
3. Mamatqulov O. Lof. Mushtum // – 2013 –№ 4 . 10-bet
4. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqqa, 2010.
5. Toirova O‘. Xandalar. // Mushtum. – 2010. – №5.
6. Toshaliyev I, Abdusattorov R. Ommaviy axborotning tili va uslubi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “ Zar Qalam”, 2006.
7. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. –T.: Tafakkur, 2011.
8. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdon, 2021.–555 b.
9. Yokubova, S. Y., & Usmonova, M. B. (2023). Obyektli birikmalarning qurilish qoliplari xususida// Prospects and main trends in modern science, 1(5), 46-50.
10. Yusufovna, Y. S. (2022). Poetik nutqda ma‘no ko‘chish yo‘llari//Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 674-677
11. Khojiev, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). Language and speech expression of personal descriptions. TJE-Tematics journal of Education ISSN, 2249-9822.
12. Hamroyeva M. R. LEBY LAYERS OF NAMES USED IN THE ARTISTIC WORKS OF TAHIR MALIK //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 367-373.

## **“DUNYONING ISHLARI” ASARIDAGI KO‘CHMA MA’NODAGI SO‘ZLAR VA ULARNING BADIY AHAMIYATI**

**Raimova A.,**  
BuxDU talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida qo‘llanilgan ko‘chma ma‘nodagi so‘zlar ustida tahlil olib borishga bag‘ishlangan. Asarda qo‘llangan badiiy vositalar, jumladan, metafora, metonimiya, sinekdoxa, simvolika va bo‘rtirma kabi usullarni tahlil qilish orqali muallifning til boyligi va ma‘no chuqurligini ochib berish maqsad qilingan. Maqolada ko‘chma ma‘no yordamida inson his-tuyg‘ulari va hayotiy voqealar qanday ifoda etilishi batafsil ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** *ko‘chma ma‘no, metafora, metonimiya, sinekdoxa, simvolika, badiiy vositalar, geperbola, adabiy tahlil*

O‘tkir Hoshimov – o‘zbek yozuvchisi, dramaturgi va jamoat arbobi. O‘tkir Hoshimov o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos iz qoldirgan yozuvchi bo‘lib, uning asarlari bugungi kunda ham o‘qilishi va o‘rganilishi davom etmoqda. O‘tkir Hoshimov badiiy til va badiiy tasvirlari bilan ajralib turadi. Uning ko‘chma ma‘nodagi so‘zlar va ramzlar orqali hayotning ko‘p qirrali jihatlarini ochib berish qobiliyati o‘zbek adabiyotida muhim ahamiyatga ega. "Dunyoning ishlari" asari O‘tkir Hoshimovning mashhur qissasi bo‘lib, unda tilning boyligi va ko‘chma ma‘nodagi so‘zlardan keng foydalanilgan. Asarda turli obraz va voqealarni tasvirlashda badiiy vositalar, jumladan, ko‘chma ma‘noli so‘zlar katta ahamiyatga ega. Quyida ushbu asarda uchraydigan ba‘zi ko‘chma ma‘nodagi so‘zlar ustida ishni ko‘rish mumkin:

1. Metaforalar (Istioralar). Metaforalar – bu ikki narsa o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida ularni birlashtirib ifodalash usuli.[5] Asarda bu usul keng qo‘llaniladi. Metaforalar asarda ma‘noni yanada chuqurlashtirish, qahramonlar ruhiy holatini ifodalash uchun keng qo‘llaniladi. Misol uchun, inson hayoti, qismat yoki dunyoviy hodisalarni tasvirlashda quyidagi turdagi istioralar uchrashi mumkin: «Hayot dengizdek to‘lqinlanadi» degan tasvirda hayotning o‘zgaruvchanligi va beqarorligi dengiz to‘lqinlari bilan solishtiriladi. Bu metafora orqali muallif inson hayotidagi kutilmagan burilishlarni, quvonch va qayg‘u o‘rtasidagi nozik chegara mavjudligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, «ko‘ngil quyoshdek charaqladi» kabi iboralar ham insonning ichki hissiyotlari, xursandchilik va baxtning



|   |     |
|---|-----|
| Hamroyeva M. R., Hamidova D. M. ABDULLA QAHHOR ASARLARINING BADIYIY TILI TAHLILIDAN .....   | 82  |
| Hamroyeva M.R. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARI TUZISHDA INNOVATSION YONDASHUV .....                        | 84  |
| Hikmatova G. O'QUVCHILAR NUTQIDA SO'Z-GAPLAR ETIKASI .....  | 85  |
| Latifova M.Y. MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA ERKIN O'XSHATISHLAR .....   | 87  |
| Nazarova S.A., Yoqubova Sh.Y. ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA FE'LLI BIRIKMALARNING NUTQIY VOQELANISHI .....                                      | 89  |
| Nuritdinova Sh.S., Raximova N. B. SO'Z KO'CHMA MA'NOLARI USTIDA ISHLASHNING INNOVATSION USULLARI .....  | 91  |
| Primov Sh. M. KICHIK HAJVIY JANRLAR TILI VA USLUBI .....  | 94  |
| Raimova A. "DUNYONING ISHLARI" ASARIDAGI KO'CHMA MA'NODAGI SO'ZLAR VA ULARNING BADIY AHAMIYATI .....  | 98  |
| Raxmonqulova M. T. KONSEPTOSFERANING DUNYO KOGNITIV TASVIRI BILAN ALOQADORLIGI .....  | 101 |
| Samandarova G. Y. RUS XALQ MAQOLLARIDA SONLAR .....   | 102 |
| To'xtayev Sh. F. TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ASARI BADIY OBRAZLARI TAHLILI .....  | 105 |
| Xojiyeva M.Y. O'ZBEK TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....   | 107 |
| Xoldorova Kh. THE RELEVENCE OF THE STUDY OF THE FIELD OF "TOURISM" IN MODERN LINGUISTICS .....  | 109 |
| Юсупова А. Ш., Хамроева М. Р. МЕТОДОЛОГИЧЕСКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ АНТРОПОНИМИЧЕСКИХ ФОРМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ТАХИРА МАЛИКА ..... | 111 |

### **3-SHU'BA. SOHA LUG 'ATLARINI TUZISH VA TERMINOLOGIYA**

#### **MASALALARI .....**

|  |            |
|--|------------|
| <b>MASALALARI .....</b>  | <b>114</b> |
| Asadov T. H. O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATIDA ORALIQ SO'ZLAR IFODASI .....   | 114        |
| Astanova G. A. TARJIMA LUG'ATLAR YARATISH MASALALARGA DOIR .....   | 116        |
| Jamilova B.S. AXBORIY MATNLARDA O'ZBEK TILINING SOFLIGI MUAMMOSI .....   | 120        |
| Navro'zova M. G'.TERMIN, ATAMA VA SO'Z O'RTASIDAGI MUNOSABAT .....   | 122        |
| Rajabov D.Z. QO'SHIQ VA UNING ETIMOLOGIK IZOHI .....   | 125        |
| Sharipova M. J., Bafoyeva D. E. QARINDOSHLIK MAQOLLARIDA GETERONIMIK MUNOSABAT .....   | 127        |
| Kadirov Boburjon Muhammadganiyevich. SHARQIY YEVROPA HAMDA MARKAZIY OSIYO MITAQALARIDAGI HAJVIY JANRLARNING KELIB CHIQISHI ..... | 130        |